

O'QITUVCHI TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING O'QUVCHILARNING
PSIXOLOGIK FAROVONLIGIGA TA'SIRI

G'anijonova Maftuna Salimjon qizi

Kokand University Andijan Branch

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22236787>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ko'rsatiladigan ijtimoiy, emotsional va akademik qo'llab-quvvatlashning o'quvchilarning psixologik farovonligi bilan o'zaro bog'liqligi pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada o'qituvchi qo'llab-quvvatlashining mazmuni, uning asosiy shakllari hamda psixologik farovonlikning tarkibiy komponentlari yoritiladi. O'zbek va xorijiy ilmiy manbalar tahlili asosida o'qituvchining empatik munosabati, o'quvchi fikrini hurmat qilishi, konstruktiv fikr-mulohaza berishi, akademik qiyinchiliklarda yordam ko'rsatishi va psixologik xavfsiz ta'lim muhitini yaratishi o'quvchilarning farovonligi bilan bog'liq muhim omillar ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi qo'llab-quvvatlashi, psixologik farovonlik, o'quvchi, o'qituvchi-o'quvchi munosabati, emotsional qo'llab-quvvatlash, pedagogik muloqot, psixologik xavfsizlik, maktabga tegishlilik.

Аннотация. В статье с психолого-педагогической точки зрения анализируется взаимосвязь между социальной, эмоциональной и академической поддержкой, оказываемой учителем учащимся, и их психологическим благополучием. Актуальность исследования определяется необходимостью обеспечения не только академических достижений учащихся, но и их эмоционального состояния, психологической безопасности, уверенности в себе и чувства принадлежности к школьной среде. Рассматриваются содержание и основные формы поддержки со стороны учителя, а также структурные компоненты психологического благополучия учащихся. На основе анализа узбекских и зарубежных научных источников обосновывается значение эмпатичного отношения учителя, уважения мнения учащихся, конструктивной обратной связи, академической помощи и создания психологически безопасной образовательной среды.

Ключевые слова: поддержка учителя, психологическое благополучие, учащиеся, отношения учителя и ученика, эмоциональная поддержка, педагогическое общение, психологическая безопасность, чувство принадлежности к школе.

Abstract. This article examines the relationship between social, emotional, and academic teacher support and students' psychological well-being from a pedagogical and psychological perspective. The relevance of the study is determined by the growing need to consider not only students' academic achievement but also their emotional state, psychological safety, self-confidence, and sense of belonging within the school environment. The article discusses the conceptual dimensions of teacher support and the main components of students' psychological well-being.

Based on an analysis of Uzbek and international scholarly literature, the study highlights the importance of teachers' empathic attitudes, respect for students' opinions, constructive feedback, academic assistance, and the creation of a psychologically safe learning environment.

Keywords: teacher support, psychological well-being, students, teacher-student relationship, emotional support, pedagogical communication, psychological safety, school belonging.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini faqat o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlari orqali baholash yetarli emas. O'quvchining ta'lim jarayonidagi psixologik holati, emotsional barqarorligi, o'ziga bo'lgan ishonchi, ijtimoiy munosabatlari va maktab muhitida o'zini xavfsiz his qilishi ham ta'lim sifatining muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

O'zbek pedagogik-psixologik adabiyotlarida ham ta'lim jarayonida shaxslararo munosabatlar, pedagogik muloqot, o'qituvchi shaxsi va o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimligi ta'kidlangan. Xususan, Z.T. Nishanova, N.G. Kamilova, D.U. Abdullayeva va M.X. Xolnazarovalarning "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" darsligida ta'lim, tarbiya va o'qituvchi psixologiyasi bilan bog'liq masalalar tizimli ravishda yoritilgan.

D.R. Turayevaning 2025-yilda nashr etilgan monografiyasida esa o'qituvchi-o'quvchi hamkorligining ijtimoiy-psixologik asoslari bevosita tadqiq etilib, ishonch, empatiya, o'zaro tushunish, muloqot uslubi va hamkorlikka tayyorlik kabi omillarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati asoslangan. Muallif o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida ko'rsatadi [1; 44–47].

Xorijiy tadqiqotlarda ham teacher support tushunchasi o'quvchilarning psixologik farovonligi, motivatsiyasi va ta'limdagi faolligi bilan bog'liq holda keng o'rganilmoqda. Masalan, Roorda va hammualliflarning meta-tahlilida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining emotsional sifati o'quvchilarning maktabga jalb etilishi va akademik natijalari bilan bog'liqligi 99 ta tadqiqot asosida tahlil qilingan [2; 493–529].

Shu sababli o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlashni faqat o'quv materialini tushuntirish yoki akademik yordam bilan chegaralash to'g'ri emas. U o'quvchining emotsional ehtiyojlarini tushunish, uning fikrini hurmat qilish, muvaffaqiyati va qiyinchiliklariga konstruktiv munosabatda bo'lish hamda psixologik jihatdan xavfsiz ta'lim muhitini yaratishni ham o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning maqsadi - o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlashning o'quvchilarning psixologik farovonligi bilan bog'liqligini pedagogik va psixologik adabiyotlar asosida tahlil qilish hamda ta'lim amaliyoti uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- teacher support tushunchasining pedagogik-psixologik mazmunini aniqlash;

- o'quvchilarning psixologik farovonligi tushunchasini tavsiflash;
- o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining psixologik mexanizmlarini tahlil qilish;
- teacher support va psychological well-being o'rtasidagi bog'liqlikni xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida ko'rib chiqish;
- o'quvchilarning psixologik farovonligini oshirishga qaratilgan pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti -ta'lim jarayonida o'quvchilarning psixologik farovonligi.

Tadqiqot predmeti - o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash va o'quvchilarning psixologik farovonligi o'rtasidagi pedagogik-psixologik munosabatlar.

Tadqiqot metodlari: ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va ilmiy manbalarni kontent tahlil qilish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'qituvchi qo'llab-quvvatlashining pedagogik-psixologik mazmuni

Teacher support - o'quvchining ta'lim jarayonidagi akademik, emotsional va ijtimoiy ehtiyojlariga o'qituvchi tomonidan javob berish jarayonidir. Mazkur tushunchani bir nechta tarkibiy komponentlarga ajratish mumkin.

Birinchidan, emotsional qo'llab-quvvatlash o'qituvchining o'quvchini tinglashi, uning his-tuyg'ularini tushunishi, hurmat qilishi va zarur hollarda psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlashini anglatadi.

Ikkinchidan, akademik qo'llab-quvvatlash o'quvchining bilim olish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarini aniqlash, tushuntirish, konstruktiv feedback berish va o'quvchiga o'z imkoniyatlarini namoyon qilish uchun sharoit yaratishni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash o'quvchining sinf jamoasiga integratsiyalashuvi, tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishi va maktab muhitida o'zini qadrlangan shaxs sifatida his qilishiga yordam berishni anglatadi.

To'rtinchidan, avtonomiyani qo'llab-quvvatlash o'quvchining mustaqil fikrlashi, tanlov qilishi va ta'lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishini rag'batlantirish bilan bog'liq.

Zamonaviy tadqiqotlarda teacher supportning aynan ushbu shakllari o'quvchilarning psixologik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi va shu orqali ularning motivatsiyasi hamda farovonligiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ko'rsatiladi. Kristensen va Jeno tomonidan 1453 nafar norvegiyalik o'quvchi ma'lumotlari asosida olib borilgan longitudinal tadqiqotda teacher autonomy supportning yuqori darajasi mental well-being bilan ijobiy, academic stress bilan esa salbiy bog'liqlik ko'rsatgan [3; 1–32].

O'zbek tadqiqotlarida ham o'qituvchi-o'quvchi hamkorligining asosida ishonch, empatiya va o'zaro tushunish kabi psixologik omillar turishi ta'kidlangan. Turayeva o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida ishonchni emotsional xavfsizlik va samarali muloqotni shakllantiruvchi mexanizm sifatida ko'rsatadi [1; 44–45]. Empatiya esa o'qituvchiga o'quvchining ehtiyojlari va individual xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi [1; 46–47].

Psixologik farovonlik tushunchasi

Psixologik farovonlik insonning faqat salbiy emotsional holatlarning yo'qligi bilan belgilanmaydi. U shaxsning hayotdan qoniqishi, ijobiy emotsiyalarni boshdan kechirishi, o'z imkoniyatlarini anglab yetishi, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishi va hayot faoliyatida ma'no topishi bilan ham bog'liq.

Ryffning psixologik farovonlik modeli avtonomiya, atrof-muhitni boshqarish, shaxsiy o'sish, ijobiy munosabatlar, hayot maqsadi va o'zini qabul qilish kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim muhitida ushbu komponentlarning ayrimlari o'quvchining o'qituvchi va tengdoshlari bilan munosabatlari orqali shakllanishi mumkin. Masalan, o'qituvchi o'quvchining fikrini hurmat qilsa, bu uning avtonomiya hissini kuchaytirishi mumkin; o'quvchining muvaffaqiyatlarini e'tirof etsa, uning o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanishi mumkin.

Shu jihatdan psychological well-being ta'lim jarayonining qo'shimcha natijasi emas, balki ta'limning samarali tashkil etilishi uchun muhim psixologik shartlardan biri sifatida qaralishi lozim.

O'qituvchi qo'llab-quvvatlashi va psixologik farovonlik o'rtasidagi bog'liqlik

Teacher support va psychological well-being o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishda Self-Determination Theory muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur nazariyaga ko'ra, insonning uchta asosiy psixologik ehtiyoji - autonomy, competence va relatedness -qondirilishi uning ijobiy psixologik rivojlanishi va farovonligiga yordam beradi.

O'qituvchi ushbu ehtiyojlarning qondirilishiga bevosita ta'sir qilishi mumkin. Masalan, o'quvchiga tanlov berish autonomy ehtiyojini, konstruktiv feedback competence ehtiyojini, hurmat va samimiy muloqot esa relatedness ehtiyojini qo'llab-quvvatlaydi.

Kristensen va Jenoning tadqiqotida teacher autonomy support va mental well-being o'rtasida ijobiy bog'liqlik, teacher autonomy support va academic stress o'rtasida esa salbiy bog'liqlik aniqlangan [3; 152–153]. Shuningdek, Tang va Zhu 968 nafar xitoylik EFL talabalarining ma'lumotlarini strukturaviy tenglamalar modeli yordamida tahlil qilib, teacher supportning psychological well-being bilan ijobiy bog'liqligini aniqlagan. Tadqiqotda teacher supportning well-being bilan bog'liqligi $\beta = 0.43$, $p < 0.001$ darajasida qayd etilgan [4; 1–2].

Mazkur natijalar teacher supportning o'quvchilarning psixologik farovonligi bilan bevosita aloqador bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Biroq bu bog'liqlikni har bir ta'lim kontekstida bir xil deb qabul qilish mumkin emas. Masalan, 2026-yilda chop etilgan pesanten ta'limi kontekstidagi tadqiqotda 118 nafar ishtirokchi asosida teacher support va psychological well-being o'rtasidagi munosabat statistik jihatdan ahamiyatli chiqmagan [5; 1–8].

Bu holat psychological well-being ko'plab omillar ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi.

O'quvchining oilaviy muhiti, tengdoshlari bilan munosabati, shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, akademik bosim va individual coping strategiyalari ham muhim rol o'ynashi mumkin.

O'QITUVCHI QO'LLAB-QUVVATLASHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Ishonch

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ishonch psixologik xavfsiz ta'lim muhitining asosiy shartlaridan biridir. O'quvchi o'qituvchi tomonidan hurmat qilinishi va uning fikri tinglanishiga ishonsa, u savol berish, xato qilish va yordam so'rashdan kamroq qo'rqadi.

Turayeva o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida ishonchni markaziy ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan biri sifatida ko'rsatadi. Ishonchning mavjudligi ochiq muloqot va psixologik xavfsizlikni kuchaytirishi mumkin [1; 44–45].

Empatiya

Empatiya o'qituvchining o'quvchi kechinmalarini tushunishi va uning nuqtayi nazarini hisobga olish qobiliyatidir. Empatik o'qituvchi o'quvchining xatosini faqat akademik kamchilik sifatida emas, balki uning individual imkoniyatlari va psixologik holati bilan bog'liq jarayon sifatida ham ko'rib chiqadi.

Turayeva o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida empatiyaning individual yondashuvni shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [1; 46–47].

Konstruktiv feedback

O'quvchiga beriladigan feedback uning o'ziga bo'lgan ishonchiga ta'sir qilishi mumkin.

Faqat xatoni ko'rsatishga asoslangan tanqid o'quvchida muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish va akademik xavotirni kuchaytirishi mumkin. Konstruktiv feedback esa xatoni tuzatish yo'lini ko'rsatadi va o'quvchining competence hissini qo'llab-quvvatlaydi.

Shuning uchun "xato qilding" degan baholashdan ko'ra "bu qismda qiyinchilik bor, uni quyidagi usulda yaxshilash mumkin" kabi feedback o'quvchining psixologik xavfsizligi uchun samaraliroq bo'lishi mumkin.

Maktabga tegishlilik hissi

Teacher supportning psychological well-beingga ta'siri har doim ham bevosita amalga oshmasligi mumkin. O'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlangan o'quvchi o'zini sinf va maktab jamoasining bir qismi sifatida his qilishi mumkin. Bu esa school belongingni kuchaytirib, uning psixologik farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini oshiradi.

Shu sababli kelgusidagi empirik tadqiqotlarda quyidagi modelni tekshirish maqsadga muvofiq:

Teacher support → School belonging → Psychological well-being

Bunday model teacher supportning o'quvchi farovonligiga ta'sir qiluvchi mexanizmlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

MUHOKAMA

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash o'quvchining psixologik farovonligi bilan ko'p jihatdan bog'liq. Biroq teacher supportni yagona sabab sifatida ko'rsatish ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Psychological well-being murakkab va ko'p omilli konstrukt bo'lib, unda individual, oilaviy, ijtimoiy va institutsional omillar o'zaro ta'sirlashadi.

Xorijiy tadqiqotlar teacher supportning mental well-being, academic stress, motivation va school engagement bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda [2; 493–529; 3; 152–153].

Shuningdek, Tang va Zhu tadqiqotida teacher support academic self-efficacy va grit bilan birgalikda psychological well-beingni tushuntiruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lgan [4; 1–2].

O'zbekiston kontekstida esa o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining ishonch, empatiya, muloqot va hamkorlik kabi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini alohida o'rganish muhimdir.

Turayeva tomonidan ishlab chiqilgan o'qituvchi-o'quvchi hamkorlik modeli aynan ushbu munosabatlarning ijtimoiy, shaxsiy-psixologik va pedagogik omillar bilan bog'liqligini ko'rsatadi [1; 44–47].

Demak, o'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi pozitsiyasi o'quvchiga faqat akademik yordam berish bilan cheklanmaydi. U o'quvchining psixologik ehtiyojlarini qondirish, xavfsizlik hissini yaratish, o'ziga ishonchini kuchaytirish va ta'lim jarayoniga ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

O'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlash o'quvchilarning psixologik farovonligini shakllantirishda muhim pedagogik-psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Adabiyotlar tahlili teacher supportning emotsional, akademik, ijtimoiy va avtonomiyani qo'llab-quvvatlash shakllarini ajratish imkonini beradi.

O'qituvchining empatik munosabati, o'quvchining fikrini hurmat qilishi, konstruktiv feedback berishi, akademik qiyinchiliklarda yordam ko'rsatishi va psixologik xavfsiz muhit yaratishi o'quvchining o'zini qadrlangan va ta'lim jamoasining muhim a'zosi sifatida his qilishiga yordam berishi mumkin.

O'zbek va xorijiy ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida teacher support va psychological well-being o'rtasidagi munosabatni tushuntirishda ishonch, empatiya, self-efficacy, school belonging va basic psychological needs kabi omillarni hisobga olish zarurligi aniqlandi.

Shu bilan birga, ushbu munosabatni O'zbekiston ta'lim muhiti misolida empirik tekshirish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda. Kelgusidagi tadqiqotlarda maktab o'quvchilari orasida teacher support va psychological well-beingni standartlashtirilgan psixodagnostik metodikalar yordamida o'rganish, natijalarni yosh, jins, ta'lim bosqichi va maktab turi bo'yicha qiyoslash maqsadga muvofiq.

AMALIY TAVSIYALAR

- O'qituvchilar uchun emotsional va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan treninglarni tashkil etish.
- Ta'lim jarayonida konstruktiv feedback berish texnikalaridan foydalanish.
- O'quvchilarning fikri va individual ehtiyojlarini muntazam hisobga olish.
- Sinfda xato qilishdan qo'rqmaydigan psixologik xavfsiz muhit yaratish.
- O'quvchilarning maktabga tegishlilik hissini kuchaytiruvchi jamoaviy faoliyatlarni rivojlantirish.
- Maktab psixologi va o'qituvchi hamkorligini kuchaytirish.

• O'quvchining akademik natijasi bilan bir qatorda uning emotsional va psixologik holatini ham monitoring qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turayeva D.R. O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchi-o'quvchi hamkorligining ijtimoiy-psixologik asoslari. – Toshkent: Dizayn Market, 2025. – 220 b.
2. Roorda D.L., Koomen H.M.Y., Spilt J.L., Oort F.J. The influence of affective teacher-student relationships on students' school engagement and achievement: A meta-analytic approach // Review of Educational Research. – 2011. – Vol. 81, No. 4. – P. 493–529.
3. Kristensen S.M., Jenö L.M. The developmental trajectories of teacher autonomy support and adolescent mental well-being and academic stress // Social Psychology of Education. – 2024. – Vol. 27. – P. 1–32.
4. Tang L., Zhu X. Academic self-efficacy, grit, and teacher support as predictors of psychological well-being of Chinese EFL students // Frontiers in Psychology. – 2024. – Vol. 14. – Article 1332909.
5. Ezadany A., Khusumadewi A. Revisiting Teacher Support and Psychological Well-Being among Santri in Pesantren: An Explanatory Analysis // Jurnal Sosiologi Agama Indonesia. – 2026. – Vol. 7, No. 1. – P. 1–8.
6. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 600 b.
7. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2007. – 160 b.
8. G'oziyev E.G'. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 1997. – 80 b.
9. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. – Buxoro, 2007.
10. Roorda D.L., Koomen H.M.Y., Spilt J.L., Oort F.J. The influence of affective teacher-student relationships on students' school engagement and achievement: A meta-analytic approach. – Review of Educational Research, 2011. – 81(4). – P. 493–529.
11. Ryan R.M., Deci E.L. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017.
12. Ryff C.D. Happiness is everything, or is it? Explorations on the meaning of psychological well-being // Journal of Personality and Social Psychology. – 1989. – Vol. 57, No. 6. – P. 1069–1081.
13. Wentzel K.R. Student motivation in middle school: The role of perceived pedagogical caring // Journal of Educational Psychology. – 1997. – Vol. 89, No. 3. – P. 411–419.
14. Wang M.T., Eccles J.S. Social support matters: Longitudinal effects of social support on three dimensions of school engagement // Child Development. – 2012. – Vol. 83, No. 3. – P. 877–895.
15. Tang L., Zhu X. Academic self-efficacy, grit, and teacher support as predictors of psychological well-being of Chinese EFL students // Frontiers in Psychology. – 2024. – Vol. 14. – Article 1332909. DOI: 10.3389/fpsyg.2023.1332909.